

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501492>

## XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY HAYOTDA TUTGAN O‘RNI (1939-1945 YILLAR)

**Teshaboyeva Gulruxsor Bahromjonovna**

FarDU Tarix fakulteti IV kurs talabasi

[gulruxsorteshaboyeva@gmail.com](mailto:gulruxsorteshaboyeva@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston xotin-qizlarining mamlakat iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni haqida bazi mulohazalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *urush, zavod, stanok, kolxoz, sovxoz, partiya, s‘yezd, rais, GES, ishlab chiqarish.*

## THE ROLE OF WOMEN IN ECONOMIC LIFE 1939-1945

### ABSTRACT

*In this article, some comments are made about the role of Uzbekistan women in the country’s economic life during the Second World War.*

**Key words:** *war, factory, machine, collective farm, state farm, party, congress, chairman, HPS, production.*

O‘zbekiston xotin-qizlarining metin irodalari ikkinchi jahon urushi yillarida juda katta sinovdan o‘tdi. Urush yillarida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini orttirish, ularni xalq xo‘jaligida hal qiluvchi ijtimoiy kuch sifatidagi rolini o‘stirish davr talabiga aylandi. 1941-yil 9-sentyabrda Toshkent shahri partiya tashkilotining urush davri sharoitidagi ishi to‘g‘risidagi qarorida, O‘z KP(b) MQ ning 1941-yil dekabr oyidagi Plenumida, 1942-yil 21-apreldagi Andijon viloyati partiya faollari yig‘ilishida harbiy vaziyatda partiyaviy-siyosiy ishlarni tashkil etish masalasi muhokama qilinib, ko‘plab xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilina boshladi. Natijada, xotin-qizlar partiya va boshqa sovet tashkilotlarining mas‘uliyatli lavozimlarini egallay boshladilar. Urushdan oldingi yillarda rahbarlik lavozimida band xotin-qizlar salmog‘i respublika bo‘yicha atigi 280 nafar ayolni, ya‘ni jami rahbar xodimlar tarkibining 1,2 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 1944-1945 yillar davomida partiya va sovet tashkilotlarida 940 nafar xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Birgina Xorazm viloyatida 1941-1942 yillarda 97 nafar ayol rahbarlik lavozimiga tavsiya etilgan. Shulardan, 18 nafari

qishloq soveti raisligiga, 8 nafari kolxoz raisi (1943-yilda viloyat bo'yicha 81 nafar ayol kolxoz raisi bo'lgan), 358 nafari kolxoz raisi muovini, 28 nafari brigada boshlig'i, 8146 nafari zveno boshlig'i lavozimlariga qo'yildi. 1941-1943 yillarda viloyat bo'yicha 316 nafar ayol partiya va sovet rahbarlik o'rinlariga, 1273 nafari xo'jalik rahbarlik lavozimlariga ko'tarildi. Faqat 1941-yilda viloyatda turli mutaxassisliklar bo'yicha 2200 nafar xotin-qizlar rahbarlik lavozimlariga tayyorlangan<sup>1</sup>. Andijon viloyatida 1942-yilda 2000 dan ortiq xotin-qizlar kolxoz raisi, brigadir etib saylangan. Birgina Jalolquduq tumanida 43 nafar kolxozchi ayollar kolxoz raisi, rais o'rinbosari vazifasiga ko'tarilgan. Qashqadaryo viloyatida esa, 1400 kolxozchi xotin-qizlar paxtachilik, pilachilik bo'yicha zveno boshliqlari lavozimlariga tayinlangan. Chiroqchi tumanida 45 nafar ayol kolxoz raisi o'rinbosari etib saylandi. Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanida 52 nafar ayol rais o'rinbosari, 150 ayol brigadir va 400 ayol zveno boshliqlari bo'lishgan. Umuman respublika bo'yicha 1943-yilda 15 ming ayol kolxoz raisi, rais o'rinbosari va brigadir, 48.772 nafar qishloq ayollari zveno boshliqlari bo'lib ishlagan<sup>2</sup>.

Bundan ko'rinib turibdiki xotin-qizlar ko'plab sohalarda sezilarli marralarni zabt etdilar. Ularning vatanga muhabbati, fidoiyligi sababdan urush davrida iqtisodiyot biroz bo'lsada o'sdi. Ammo bu yuksalish badali og'ir bo'ldi. Chunki ayollar yillar davomida erkaklar ishlagan vazifalarni bajarish davomida salomatliklariga katta zarar yetdi. Ayol jismonan erkakning vazifalarini bajara olgani bilan, ular buni uzoq vatq amalga oshira olmaydi shu sababdan urush yillari ishlab chiqarish hajmining ancha ortganligiga qaramay, sanoatning tarmoqlari bir tekisda rivojlanmadi. Elektroenergiya va yoqilg'i xom ashyolarining yetishmasligi tufayli fabrika, zavodlarning bir qismi ishsiz turib qolgan edi. 1942-yili davlatga deyarli 1 mln. so'mga yaqin sanoat mahsulotlari topshirilmadi. Shu tufayli O'zbekiston hukumati o'z oldiga favqulotda masalalarni, ya'ni qudratli energetik bazani yaratish, xomashyo manbalarini aniqlash, ko'mir qazib olishni ko'paytirish, neft va gaz qayta ishlab chiqarish sur'atlarini jadalallashtirish qo'ydi. Shuning uchun ham xotin-qizlar jismoniy imkoniyatlari ko'tarmasa-da, og'ir sanoat ishlab chiqarishida mehnat qilishga majbur etildi. Sovetlarning ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi asosida, tazyiq va siquvlar oqibatida xotin-qizlar mavjud muhitga moslashishga majbur bo'lgan holda, o'zlari bilib-bilmay, sotsialistik xalq xo'jaligi zarbdori bo'lishga intilganlar. Yuz minglab ayollar urush yillarida respublikani elektrlashtirish umumxalq harakatiga qo'shilgan. 1944-yil 9-martdagi «Pravda Vostoka» gazetasida: «Salor GESi qurilishida Farg'ona viloyatidan

<sup>1</sup> Жўраева Н.Д. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётда хотин-қизларининг ўрни (XX асрнинг 20—30-йиллари мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражсини олиш учун ёзилган диссертация. — Т.: 2004.

<sup>2</sup> Иккинчи жаҳон урушида фашизм устидан қозонилган ғалабага Ўзбекистон халқининг қўшган ҳиссаси. Илмий-амалий онлайн конференция материаллари. — Тошкент: Фан. 2020 й. 239 б

kelgan Tursunoy Yo‘lchiboeva, namanganlik Hayrixon Sodiqova, ishchilar L.Abdurazzoqova, T.Abdusalomova, M.Sevastyanova, Kandaurova va boshqa ayollar brigadalari vakillari mehnat jasorati namunalarini ko‘rsatdilar. GES qurilishida asosan, ayollar ishlaganlari uchun ham, stansiyaga «8-Mart» nomi berildi», - deb yozilgan edi. Urush yillarida respublikaning barcha viloyatlarida sanoatning rivojida ayollar o‘z mehnati bilan salmoqli hissa qo‘shdi. Ular vaqti kelganda, ikki va hattoki uch smenada ham mehnat qilishga majbur qilindi. Jumladan, Urganch tikuvchilik fabrikasida joriy qilingan uch smenalik ish faoliyatida Umarova, Sa‘dullaeva, Bekmonova, Azizova kabi ishchi ayollar fidoyilik bilan mehnat qilib, kundalik rejani 2-2,5 barvar qilib bajardilar. Ikkita o‘g‘lini frontga jo‘natgan Ulijon Matkarimova kundalik vazifani 170—200 foizga bajaribgina qolmasdan, tikuvchilik kasbiga yoshlarni ham o‘rgata boshladi. Xotin-qizlarning faol ijtimoiy kuch sifatidagi mehnati tufayli sanoat ishlab chiqarishi Farg‘ona viloyatida 50-60 foizga o‘sdi, Qo‘qonda superfosfat zavodi, Fargona gidroliz zavodi, Quvasoydagi shifer va kimyo zavodlari, Qo‘qondagi shakar zavodi, Marg‘ilondagi konserva zavodi qurilib, ishga tushdi<sup>1</sup>.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xotin-qizlari uchun Vatan ozodligi va uning tinchligi muqaddas hisoblangan. Shuning uchun ham o‘zbek ayollari o‘z tabiatiga xos bo‘lgan vatanparvarlik tufayli fashizmga qarshi urush yillarida janglarda mardlarcha qahramonlik ko‘rsatishdi. Haqiqiy frontda ishtirok etmaganlar esa front ortini yana bir frontga aylantirishdi. Tinimsiz mehnatlar, salomatliklaridagi fidoiyliklar evaziga buyuk g‘alabaga o‘z hissalarini qo‘shdilar. O‘zbekistonlik xotin-qizlar Vatan degan muqaddas tushunchani qanchalik teran anglashlarini urush yillarida yana bir bor ko‘rsatib berdilar. Biz yuqorida faqatgina ayrim sohalardagi ayollar faoliyatiga to‘xtaldik. Aslida esa xotin-qizlarimiz barcha jabhalarda ter to‘kib mehnat qildilar. Urushning og‘ir va zalvorli davrlarida ulkan matonat ko‘rsatdilar. Nafaqat ta’lim, san’at, madaniyat, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda ham yuksak natijalarni qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

---

<sup>1</sup> Мадраҳимова Р. Ўзбекистон хотин-қизларининг улуғ Ватан уруши йилларидаги меҳнат ва ҳарбий жасоратлари. — Т.: Фан, 1981.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. (REFERENCES)**

1. Иккинчи жахон урушида фашизм устидан қозонилган ғалабага Ўзбекистон халқининг қўшган ҳиссаси. Илмий-амалий онлайн конференция материаллари. — Тошкент: Фан. 2020 й. 239 б
  2. Жўраева Н.Д. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётда хотин-қизларининг ўрни (XX асрнинг 20—30-йиллари мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражсини олиш учун ёзилган диссертация. — Т.: 2004.
  3. Мадраҳимова Р. Ўзбекистон хотин-қизларининг улуғ Ватан уруши йилларидаги меҳнат ва ҳарбий жасоратлари. — Т.: Фан, 1981.
  4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. — Тошкент: Шарқ. 2000
1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/ikkinchi\\_jahon\\_urushi](https://uz.wikipedia.org/wiki/ikkinchi_jahon_urushi)
  2. [https://enc.for.uz/wiki/ikkinchi\\_jahon\\_urushi](https://enc.for.uz/wiki/ikkinchi_jahon_urushi)
  3. <https://www.academy.uz/uz/news/ikkinchi-jahon-urushi-sahifalaridan-front-ortidagi-ozbekistonlik-ayollar>